# TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH AHAMIYATI

**Ergasheva Muxtaramxon Mashrabjon qizi**
*Andijon viloyati Buloqboshi tumani 46 IDUM o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada ta'lim muassasalarida xalqaro tajribalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlashdagi muammolar va yechimi. Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash va nazorat qilishda rivojlangan xorij davlatlar tajribalarini foydalanish takliflar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, tarbiya, innovatsiya, pedagog, talaba.*

**Abstract:** *This article presents the problem and solution of ensuring the quality of training of specialists in educational institutions, proposals for improving the quality of educational institutions today. Suggestions are used the experienves to ensure and control the quality of education in education institution.*

**Keyword:** *Education, upbringing innovations, teacher, student.*

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 5 maydagi PQ-3697 sonli "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarmi yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tog'risida"gi qarorida fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish lozimligi keltirib, hozirgi kunda oily ta'lim muassasalari amaliyotida joriy etish o'ta muhimligi ta'kidlangan.[1] Ta'lim olish jarayoni maktabdan boshlanishiga qaramay, talim sifati oshirishda avvalo, ta'lim tizmiga kadrlarni yetkazib beruvchi Oliy ta'lim muassasalarini isloh qilishdan boshlanadi. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatini ta'minlash muammosi har doim eng muhim dolzarb masala biri bo'lib kelgn. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan ishlab chiqarish korxonalarida mulkchilikka bo'lgan munosabat va talablarning o'zgarishi hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash pedagoglar, talabalar va ota-onalar, shuningdek, jamiyatning hamma tizimlariga o'z ta'sirini korsatmoqda.

Shuning uchun oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri, bu ta'lim sifatini ta'minlash va uni mazmunini boyitish va zamonaviy innovatsion va pedagogic texnologiyalarini tadbiq etish, jahon tajribasini qo'llashda uning samarasini oshirish va ta'lim sifatini ta'minlash bilan bog'liqligini doim ustivor yo'nalishligini bilishimiz kerak.[2]

Prezidentimiz ta'lim to'g'risidagi nutqlarida maktab talimi va darslilar Oliy ta'lim muassasalari kadrlarni tayyorlashda xalqaro tajribalarni o'rganishlari va ta'lim jarayoniga tadbiq qilishlari shart ekanligini takidlab o'tadilar. Bugungi globallashayotgan dunyoda qaysiki rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlar faqat va faqat ta'lim tizimiga e'tibor tufayli yuqori sifatli kadlar yetkazib berishi erishib

kelmoqda. Demak, bugungi kunda sifatni ta'minlashning yo'nalishlaridan biri bu oily ta'lim muassasalarida nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xorijiy mamlakatlar bilan shakllanishi albatta eng taraqqiy etgan ta'lim usullarni tadbiq etishni taqazo etadi. Buning asosida video konferensiyalar, masofaviy ta'lim turlarini amalga oshirish mumkin. Onlayn rejimida o'tkaziladigan bunday faol muloqot jarayonida, ikki tomondagi olimlar o'rtasida dolzarb muammolar bo'yicha baxs-muzokaralar, ularning yechimlari, ma'lum bilim sohalari bo'yicha tajriba almashish kabi vazifalar amalga oshirilishi lozim.

Etirof etish kerakki, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayondir. Shu tufayli yurtimizda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar  miqdori yildan yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlarni amalga oshirish va ularni natijaviyligini ta'minlash bu borada ta'lim tizimi sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi. Xalqaro tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilshda qo'shimcha boy manbalrga ega bo'lamiz.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashni va nazorat qilishni xorijiy tajribalar asosida oshirish, mazkur mavzu dolzarbligi va bugungi kunda zaruratini ko'rsatadi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun o'qitishni yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalarga moslashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga moslashtirish, zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda xorijiy tajiy tajribalar bugungi kunda zarur bo'ladi. Ta'lim sifati va ta'lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta'limga qanchalik ko'p mablag' sariflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Ta'lim sifati an'anaga ko'ra o'qitishning va ilmiy tadqiqotlarning OTM darajasidagi tabiiy elementi va olimlarning kasbiy faoliyatidagi ajralmas biri bo'lagi bo'lib sanaladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak,  ta'lim sifatini ta'minlash borasida shu paytgacha mavjud bo'lgan molliy va xorijiy tajriba tajribalar shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda OTMlarda alohida, tizimsiz tarzda o'tkaziladigan islohatlar va innovatsiyalar samarasiz bo'lib, bu ko'pincha oliy talim sohasidagi islohatlar va innovatsiyalar samaradorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha shu paytgacha o'rganilgan xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilgan holda, fan-texnika yutuqlarini, ta'lim jarayonidagi zamonaviy metodiklarni tadbiq qilish maqsadga muofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T: O'zbekiston,2017.104b.
2. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9- avgustda 19-2018- son buyrug'I bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26- sentyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3069).
3. Абдуллаев, Б. Т. (2022). МУДОФАА ВАЗИРЛИГИ БЎЛИНМАЛАРДА ЖАНГОВАР ТАЙЁРГАРЛИКНИ ОШИРИШ МАҚСАДИДА ШАХСИЙ ТАРКИБНИ КЎНИКМАЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 152-154.
4. Tojaliyevich, A. B., Ortikovich, U. A., & Saydaliyevich, U. S. (2022). BASIC AND PROFESSIONAL CRITERIA FOR PREPARING THE SPECIAL STUDY PERSONNEL. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(7), 79-82.
5. Baxodir, P., Baxriddin, A., Ilhomjon, T., & Arabboy, Y. (2022). The Concept of Patriotism in The Mind of Youth. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 82-83.
6. Tojalievich, A. B. (2022). Raise the awareness of military personnel about combat and combat readiness.
7. Абдуллаев, Б. Т. (2023). ИНСОН ТАНАСИНИ ЧИДАМЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 85-89.
8. Абдуллаев, Б. Т. (2023). ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОИЙ ЙЎНАЛИШЛАР. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 109-113.